



Anvar SHIRINOV,

PhD, dotsent, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Email: anvarsh@yahoo.com; ORCID: <http://orcid.org/0000-0003-3375-9673>

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc B.Karimov taqrizi asosida

INSON TARAQQIYOTIDA IJTIMOYIY XIZMATLAR O'ZBEKISTON IJTIMOYIY SIYOSATINING PSIXOLOGIK-FALSAFIY ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy falsafa va psixologiyada r-Pirson korrelyatsiya koeffitsienti asosida inson taraqqiyotida ijtimoiy xizmatlarning roli o'rganiladi. Maqolada O'zbekistonning ijtimoiy siyosati kontekstida ijtimoiy xizmatlar orqali aholining psixologik va ijtimoiy farovonligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bunda r-Pirson koeffitsienti yordamida ijtimoiy xizmatlarning psixologik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, ijtimoiy siyosatning samaradorligini baholash va takomillashtirishda asos sifatida qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi. Natijalar ijtimoiy xizmatlarning inson taraqqiyotiga ijobiy ta'siri, O'zbekiston ijtimoiy siyosatida psixologik va falsafiy yondashuvlarni mustahkamlash zaruratini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: r-Pirson koeffitsienti, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, ijtimoiy xizmatlar, inson taraqqiyoti, psixologik-falsafiy asos, psixologik yordam O'zbekistonda ijtimoiy siyosat.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕКА КАК ПСИХОЛОГИКО-ФИЛОСОФСКАЯ ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье на основе коэффициента корреляции Пирсона (r) изучается роль социальных услуг в развитии человека в рамках социальной философии и психологии. В исследовании анализируются механизмы повышения психологического и социального благополучия населения через социальные услуги в контексте социальной политики Узбекистана. С помощью коэффициента Пирсона выявляется взаимосвязь между психологическими показателями социальных услуг, что может использоваться в качестве основы для оценки эффективности и совершенствования социальной политики. Результаты показывают положительное влияние социальных услуг на развитие человека и необходимость укрепления психологических и философских подходов в социальной политике Узбекистана.

Ключевые слова: коэффициент корреляции Пирсона, Национальное агентство социальной защиты, социальные услуги, развитие человека, психологико-философская основа, психологическая помощь в социальной политике Узбекистана.

THE ROLE OF SOCIAL SERVICES IN HUMAN DEVELOPMENT AS A PSYCHOLOGICAL AND PHILOSOPHICAL BASIS OF SOCIAL POLICY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the role of social services in human development within the framework of social philosophy and psychology, based on Pearson's correlation coefficient (r). The study analyzes mechanisms for enhancing the psychological and social well-being of the population through social services in the context of Uzbekistan's social policy. Using Pearson's coefficient, the interrelation between psychological indicators of social services is identified, which can serve as a basis for assessing the effectiveness and improvement of social policy. The results demonstrate the positive impact of social services on human development and highlight the need to strengthen psychological and philosophical approaches within Uzbekistan's social policy.

Keywords: Pearson correlation coefficient, National Agency for Social Protection, social services, human development, psychological and philosophical basis, psychological support in the social policy of Uzbekistan.

Kirish. 2026-yil 14-15-mayda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlari II forumi "Ayollarga investisiya – barqaror o'sish asosi: xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarini kengaytirish" kabi dolzarb mavzuga bag'ishlandi. 20 dan ortiq xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlar, BMT Bosh kotibi o'rinbosari, BMT Aholishunoslik jamg'armasi ijrochi direktori, ShHT, xalqaro moliya institutlari, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy, Janubiy hamda Markaziy Osiyo parlamentlarining ayol a'zolari, hukumat vakillari, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakillari ishtirok etdi. Forumda mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, yetakchi ayollar, ishbilarmon doiralari, siyosatshunoslar, ijtimoiy soha faollari, olimlar hamda turli tarmoqlar vakillari qatnashib, unda "Davlat va jamiyat boshqaruvi hamda siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlar ishtirokini

kengaytirishning dolzarb masalalari"; "Xotin-qizlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash – barqaror bandlik, tadbirkorlik va muvozanatlashgan mintaqaviy o'sish omili" mavzusida sessiyalarida ilm-fanda ayollar yetakchiligi, hozirgi zamon tahdidlari, innovatsion yechimlar va ilmiy hamkorlik masalalari ilgari surildi.

Yurtimizda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2025-yilda 2,6 million nafar xotin-qizning daromadli mehnat bilan band bo'lishiga ko'maklashildi. O'zbekiston joriy yilda "Ayol, biznes va qonun" xalqaro indeksida o'z pozitsiyasini 43 pog'onaga yaxshilab, 190 ta davlat o'rtasida 48-o'rinni egallaganini mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Reproductiv salomatlik, gender tenglik, demografik barqarorlikni ta'minlash ham

ijtimoiy siyosatning dolzarb yo'nalishi sifatida mamlakatimizdagi islohotlarda katta rol o'ynamoqda. Qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish avvalo xotin-qizlar va bolalarga qaratilgan. 2022-yildan boshlab BMTTD O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan hamkorlikda Islom Taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot uchun OPEC jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan "Barqaror Qishloq Taraqqiyoti" loyihasi amalga oshirilmoqda. Bunda Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Gijduvon, Kogon va Shofirkon tumanlarida maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari, yo'llar, bog'chalar qurish, ish o'rinlarini, ayniqsa xotin-qizlar uchun yaratish nazarda tutilgan. Loyihada inson taraqqiyotini ta'minlashda Qoraqalpog'iston, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarida 48 ta ijtimoiy soha obyekti qurilishi, yana 41 ta qayta qurilishi ko'zda tutilgan. Hozirgacha uning 40 dan ziyodida ishlar yakuniga yetkazilgan. Bular O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, BMTTD, BRM ning qo'shma loyihasi bo'lib Xalqaro taraqqiyot uchun OPEC jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan [2].

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5116-son "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [3] qarori asosida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda quyidagi tashkilotlar turli darajada faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Sanitariya, gigiyena va professional kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti; Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi; O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti; Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi; Salomatlik va strategik rivojlanish instituti; O'zbekiston Respublikasi tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi; O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi; Ayollarni reabilitatsiya va moslashtirish bo'yicha respublika markazi; Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz); davlat xizmatlari markazlari; 3) "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining ijtimoiy xodimlari. 2024-yildan boshlab O'zbekistonda yagona ijtimoiy karta tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Bolalarga: Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, O'rta maxsus ta'lim muassasalari yoki oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga beriladigan har oylik va bir martalik ijtimoiy nafaqalar; Oilalarga: Homiladorlik va tug'ish nafaqasi; Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam; Keksalarga: boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi; Yoshga doir pensiya; Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moddiy yordam; Pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi shaxslarga yoshga doir nafaqasi; Nogironligi bo'lgan shaxslarga: Nogironlik pensiyasi, Protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari uchun vaucher, O'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakiliga nafaqa, Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi, Nogironlik nafaqasi (I va II guruh) to'lovlari amalga oshirildi. Boquvchisini yo'qotganlarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi; shuningdek ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish bo'yicha "Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"; "Saxovat va ko'mak", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalaridan to'lanadigan bir martalik moddiy yordam ko'rsatishni nazarda tutadigan "Baraka" ilovasi ta'sis etilgani muhim voqea bo'ldi. 2026-yil 24-aprel holatida 1 milliondan ziyod kishilarga mazkur kartalar rasmiylashtirildi. Mazkur ilova vositasida 70 dan ortiq xizmatlar ko'rsatiladi. Tizim doirasida ijtimoiy to'lovlar va nafaqalar ijtimoiy kartalar orqali amalga oshiriladi. Nafaqaxo'rlar uchun kartalarni chiqarish va yetkazib berish "Xalq banki", talaba va o'quvchilar uchun "Aloqabank" tomonidan amalga oshiriladi [4].

"Baraka" kartasi haqida savollarga 1070 ishonch raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali javob olish mumkin: Bular 1) Ijtimoiy karta va unga ro'yxatdan o'tish jarayoni; 2) Ijtimoiy karta bepul taqdim etiladigan shaxslar toifalari; 3) Ijtimoiy nafaqalar ro'yxati; 4) "Baraka" kartasi haqida savollar; 5) "Baraka" ilovasini o'rnatish va boshqarish; 6) Sizga yaqin "INSON" ijtimoiy xizmatlar markazlari manzili; 7) "Aloqabank" va "Xalq" banki manzillari; 8) "Baraka" kartasi – har bir kishi uchun qulaylik, xavfsizlik va yordamni taqdim etish masalalarini qamrab oladi. "Baraka" to'lov kartalari orqali endi ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar endi bitta ilovada kommunal to'lovlar, jarimalar yoki o'quv markazlari uchun alohida ilovalar qilmasdan to'lov qilishlari mumkin. "Baraka" mobil ilovasida 100 dan ortiq xizmatlar bir joyda jamlangan. Ilova orqali nimalarga to'lov qilish mumkin? 1) Kommunal va aloqa: Gaz, suv, elektr energiyasi, internet va mobil aloqa. 2) Davlat xizmatlari: Bojlar, jarimalar va yuridik xizmatlar. 4) Ta'lim: Bog'cha, maktab va universitetlarga to'lov. 5) Salomatlik va sayohat: Klinika to'lovlari, avia va poezd chiptalari. 6) Onlayn xizmatlar: Kredit so'ndirish, onlayn platformalarga to'lov va boshqalar.

"Baraka" ijtimoiy kartasiga my.gov.uz orqali ariza berish imkoni paydo bo'lib, "Baraka" ijtimoiy kartasiga my.gov.uz orqali ham buyurtma berish mumkin. Bunda saytga kirib, "Ijtimoiy himoya" bo'limiga o'tiladi (yoki Ijtimoiy karta olish deb qidiriladi). "Ijtimoiy karta olish" xizmatini tanlang. OneID yoki MyID orqali shaxsiy kabinetga kiriladi. Shaxsiy ma'lumotlar tasdiqlanadi va ariza yuboriladi. Bunda berilgan maxsus invoys raqami orqali to'lov amalga oshiriladi. Kartangiz tizimda yaratiladi va chop etishga yuboriladi. Tayyor bo'lgan kartani tanlangan bank filialidan olinishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri havola: my.gov.uz/uz/service/1328 yoki baraka.gov.uz saytlari vositasida kiriladi. Ijtimoiy xizmatlardan quyidagi ishonch raqamlari orqali foydalanish mumkin: 1140; Tazyiq va zo'rvonlik ishonch raqamiga: 1146; Ijtimoiy karta: 1070; Ijtimoiy himoya milliy agentligining ishonch raqami: 71 202 06 00.

Ko'rsatiladigan xizmatlardan kunduzgi parvarish xizmatidan 5414 kishi, ijtimoiy taksidan 1286 foydalanmoqda. Mazkur loyiha IHMA va Yandex Uzbekistan ijtimoiy loyihasi hisoblanadi. Loyiha nogironligi bo'lgan maktab o'quvchilari uchun shaharlarda qulay va xavfsiz transport xizmatini tashkil etishga xizmat qilmoqda. Yandex o'zining raqamli xizmatlarida ham inklyuzivlik tamoyillarini keng joriy etib kelmoqda. Bugungi kunda kompaniyaning 9 ta xizmati ko'rish imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan bo'lsa, Yandex Maps platformasida nogironligi bo'lgan insonlar uchun qulay infratuzilmalar haqida ma'lumot beruvchi 19 mingdan ortiq maxsus obyektlar joylashtirilgan.

Yandex Go xizmatida esa imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun maxsus yechimlar joriy qilingan bo'lib, foydalanuvchilar buyurtma vaqtida "Nogironlik aravasida bo'lgan" kabi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, mamlakatimizda kunduzgi parvarish xizmatining yo'lga qo'yilgani muhim hodisa boldi. Kunduzgi parvarish markazi hududdagi oilalarni qo'llab-quvvatlash va bolalarning ijtimoiy moslashuviga xizmat qiluvchi muhim maskanlardan biri bo'lishi kutilmoqda.

Inklyuziv ta'lim — imkoniyat eshigi. So'nggi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni joriy etish bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Bu faqat maktablar soni yoki sinflar ko'payganini anglatmaydi. Bu avval uyda yoki yakka tartibda ta'lim olgan bolalarning maktabga qaytishini anglatib, ota-onalardagi xavotir o'rnini ishonch egallayotganini anglatadi. Bu pedagoglar yangi yondashuvni o'rganib, har bir bola bilan alohida ishlayotganini ko'rsatadi. Mazkur faoliyatda xorijiy hamkorlar qatorida Oxford Policy Management tashkiloti ham faol ishtirok etmoqda[5].

Respublika bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilarkansmiz Inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablar soni 236 ta; Inklyuziv sinflar soni 4495 ta; Qamrab olingan o'quvchilar soni 6011 tani nafarni tashkil etishining guvohi bulamiz

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.10.2017-yildagi 799-son "O'zbekiston Respublikasi bandlik va

mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Qaroriga asosan Jamoat ishlari jamg'armasining tashkil etilishi Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy sohadagi yangilanishlarning debochasi bo'ldi. Mazkur jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.2025-yildagi 158-son "Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida Qaroriga asosan Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilib bu joylardagi islohotlarning bajarilishida katta hissa qo'shmoqda.

2026-yil may oyidan boshlab Andijon viloyatida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazida zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xalqaro W.I.N.G.S. dasturi yo'lga qo'yildi. Bu muassasada jabrlangan ayollarga nafaqat yordam, balki ularga muhim amaliy ko'nikmalar ham berilmoqda: qayerga murojaat qilish, inqirozli vaziyatlarda qanday harakat qilish, moliyaviy mustaqillikka erishish, asta-sekin o'z hayoti ustidan nazoratni qayta tiklash yo'llari o'rgatilmoqda. Ijtimoiy siyosatimizning asosiy vazifasi ushbu sinov loyihasini muvaffaqiyatli o'tkazish. Chunki kelajakda yordamga muhtoj har bir ayol ushbu dasturdan foydalanish imkoniga ega bo'lishi lozimdir [7]. 2030-yilgacha mo'ljallangan Gender tenglik strategiyasi amalga oshirilmoqda, 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilingan. Jahonda parlamentdagi deputatlik o'rinlarini egallagan ayollar yigirma yetti foiz bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich allaqachon 38 foizga yetgan.

2026-yilning 14-may kuni Urganch shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Xalqaro inklyuziv hab, UNICEF hamda Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish "Ziyo Forum" fondi tomonidan amalga oshirilayotgan "O'sish va rivojlanish" (UPSHIFT) dasturining ikkinchi mavsumi yakuniy pitchingi bo'lib o'tdi. 2026-yilda dastur ilk bor nafaqat Toshkentda, balki Urganchda ham hududiy hamkorlar — Urganch shahridagi Inklyuziv bolalar qobiliyatlarini va ijodini rivojlantirish markazi hamda DATA ta'lim markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Pitching yakunlariga ko'ra, 5 ta startap loyiha saralab olindi va ularning har biriga tashabbuslarni amalga oshirish uchun 14 000 000 so'm miqdorida moliyaviy ko'mak ajratildi.

Qo'llab-quvvatlangan loyihalar orasida qandli diabet bilan yashovchi insonlarga raqamli yordamchi; yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash platformasi; nogiron yoshlar uchun hunarmandchilik va o'z-o'zini band qilish loyihasi; yoshlarning kompyuter savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim platformasi; ko'zi ojiz yoshlar uchun Brayl yozuvidagi o'quv materiallarini yaratish tashabbusi mavjud. Ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarning uylari PQ-49-son qaror asosida energiya tejankor qilib ta'mirlanmoqda. Ijtimoiy xizmatlar tomonidan psixologik yordam

(kognitiv terapiya) hamda huquqiy ko'mak ko'rsatilmogda; bolalar nafaqasi tayinlanadi; "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi orqali moddiy yordam va oziq-ovqat ajratiladi; "Faol hayotga qadam" dasturiga jalb etilmogda; tibbiy ko'rikdan o'tkazilmogda; isitish mavsumi, Ramazon oyida va Qurbon hayitida moddiy yordam beriladi; farzandi sport to'garaklariga jalb qilinmogda. 2026-yilda yangi standart asosida 93 485 nafar fuqaroga nogironlik belgilandi. 2026-yilning I choragi davomida nogironlikni belgilashning yangi standartlari asosida 93 485 nafar fuqaroga nogironlik guruhlari belgilandi. Ilgari kasalligi mavjud bo'lsa-da, nogironlik belgilanmagan holatlar qayta ko'rib chiqilmogda. Natijada 21 turdagi kasallik bo'yicha 1 439 nafar fuqaroga nogironlik belgilandi [6].

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatda ilmiy salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan Tadqiqot akseleratori rezidentlik dasturiga saralash jarayoni yakunlandi. Dastur Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Inson" loyihasi doirasida J-PAL va ISLAB loyihalari hamkorligida amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali "Teng imkon - inklyuziv bandlik" dasturini amalga oshirish orqali 40 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxsning bandligi ta'minlanmogda. Markaziy bank orqali "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish" dasturi, "20 ta mahalliy brend" loyihasi; yoshlar bandligini ta'minlashda "Barqaror kelajak sari" dasturi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi orqali "Mehnatsevar ayol" dasturi joriy etilishi ijtimoiy xizmatlarning keng taqdim etilishini ta'minlamogda. Bu ishlarda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ budjetdan ajratilgan mablag'lar, "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasi, Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, tashabbuskorlar mablag'lari, Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi, Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi, Mehnat organlari xodimlarining mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'lari tatbiq etiladi [8].

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-yanvardagi 35-son "Ijtimoiy reyestrqa kiritilgan oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlangan Ijtimoiy reyestrqa o'tkazilgan oilalarga mazkur to'lovlarni to'lash qo'shimcha ariza talab etmasdan ularning toifasiga muvofiq davom ettiriladi. Bunda Ijtimoiy reyestrning "kambag'al oila" toifasiga o'tkazilgan oilalar uchun mehnatga layoqatli oila a'zolari rasmiy bandligini ta'minlashda belgilangan muddat ular ushbu reyestrqa o'tkazilgan sanadan boshlab hisoblanishi ko'rsatildi. Amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ishtirokchilariga murojaatnomasi. https://uza.uz/oz/posts/osiyo-xotin-qizlarining-ikkinchi-forumi-ishtirokchilariga_857231 14 may. 2026
2. International Day of Rural Women in Bukhara: New Opportunities and Recognition of Women's Leadership. October 17, 2025. <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/international-day-rural-women-bukhara-new-opportunities-and-recognition-womens-leadership>
3. <https://lex.uz/docs/-7313457?ONDATE=13.01.2025%20000#-7315111>
4. Muomalaga chiqarilgan Baraka kartalari soni 1 milliondan oshdi! <https://baraka.gov.uz/muomalaga-chiqarilgan-baraka-kartalari-soni-1-milliondan-oshdi/>
5. Global Alliances for Social Protection (GASP). <https://www.opml.co.uk/projects/global-alliances-social-protection-gasp>
6. Ijtimoiy himoya milliy agentligining Facebook tarmogidagi rasmiy sahifasi. <https://www.facebook.com/ijtimoiyhimoyaagentligi/videos/inson-uchun-xayriya-platformasi-taqdimoti-bolib-otdi/407700188679509/>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.02.2026 yildagi PQ-49-son "2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8038302>
8. Laura van Dernoot Lipsky, Connie Burk. Trauma Stewardship: An Everyday Guide to Caring for Self While Caring for others. 2020. Berrett-Koehler Publishers, Inc. -San Francisco.-P. 292.